(4). Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O‘zbek tilining assotsiativ tadqiqi. Toshkent, “Bookmany print”, 2024, 12-bet.
(5). Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента. Харьков, Москва, Ра-Каравелла, 2001, с. 138.
(6). Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский. Под ред. Н. В.Уфимцевой, Г.А.Черкасовой, Ю.Н.Караулова, Е.Ф.Тарасова. М., 2004, с. 4.
(7). Славянский ассоциативный словарь: русский, белорусский, болгарский, украинский. Под ред. Н. В.Уфимцевой, Г.А.Черкасовой, Ю.Н.Караулова, Е.Ф.Тарасова. М., 2004, с. 5.
(8). Lutfullayeva D., Karimova F., Saydaliyeva M. O‘zbek tilining assotsiativ tadqiqi. Toshkent, “Bookmany print”, 2024, 13-bet.
(9). Usmanova Sh., Bekmuxamedova N., Iskandarova G. Sotsiolingvistika (o‘quv qo‘llanma). Toshkent, “Universitet”, 2014, 75-bet.
(10). Тимофеев В.П. Диалектный словарь личности. Учен. зап. Шадринского пед. ин-та. Шадринск, 1971, № 162, с. 141.
(11). Ерофеева Т.И. Социолект: стратификационное исследование: монография. Пермь, Перм. гос. ун-т, 2009.
(12). Ван Минь. Гендерный стереотип в языковом сознании носителей китайского языка (при сопоставлении с данными носителей русского языка). Дисс. ... канд. филол. наук, Пермь, 2018, с. 48.
(13). Горошко Е.И. Интегративная модель свободного ассоциативного эксперимента. Харьков, Москва, Ра-Каравелла, 2001, с. 23.
(14). Микляева А.В., Румянцева П.В. Социальная идентичность личности: содержание, структура, механизмы формирования. Глава 1, 2008 [электронный ресурс]. URL: http://humanpsy.ru/miklyaeva/soc_ident_02
(15). Trudgill P. Sex, covert prestige, and linguistic change in the urban British English of Norwich II Language in Society, 1972, p. 179–195.

Yuldashev Jo‘rabek Uralovich (NavDU dotsenti v.b.)

KARMANA TUMANI OYKONIMLARINING GRAMMATIK-STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek toponimikasida joy nomlarining grammatik–struktur xususiyatlari yuzasidan izlanish olib borgan toponimist olimlarning fikrlari va ularga munosabat, shuningdek, Quyi Zarafshon geografik hududi toponimikasining bir qismi bo‘lgan Karmana tumani oykonimlarining grammatik-struktur xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *derivatsiya, oykonim, toponim, lisoniy qolip, lingvistik aspekt, lingvistik paradigma, etnotoponim, etnonim, etnooykonim, onomastik birlik, urug‘, qabila, konversiya, sodda oykonim, qo‘shma oykonim, murakkab tarkibli toponim.*

ГРАММАТИКО-СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМВОЛИЗМА РАЙОНА КАРМАНА

Аннотация*. В данной статье рассматриваются мнения и взгляды топонимистов, проводивших исследования грамматических и структурных особенностей топонимов в узбекской топонимии, а также грамматических и структурных особенностей топонимов Карманского района, входящего в топонимию Нижне Зарафшанского географического региона.*

Ключевые слова: *деривация, икононим, топоним, лингвистическая модель, лингвистический аспект, лингвистическая парадигма, этнотопоним, этноним, этноикононим, ономастическая единица, клан, племя, обращение, простой икононим, составной икононим, сложный топоним.*

GRAMMATICAL-STRUCTURAL FEATURES OF THE SYMBOLISM OF THE KARMANA DISTRICT

Annotation. *This article discusses the opinions and attitudes of toponymic scholars who have conducted research on the grammatical and structural features of place names in Uzbek toponymy, as well as the grammatical and structural features of the place names of the Karmana district, which are part of the toponymy of the Lower Zarafshan geographical region.*

Keywords: *derivation, icononym, toponym, linguistic pattern, linguistic aspect, linguistic paradigm, ethnotoponym, ethnonym, ethnoicononym, onomastic unit, clan, tribe, conversion, simple icononym, compound icononym, complex toponym.*

Kirish. Ma’lumki, har qanday joy nomlarida yurtning tarixi, kechmishi, geografiyasining betakror xususiyatlari, shu territoriyada yashagan xalqning o‘tmishdagi kundalik hayoti, orzu-istaklari, qaysi urug‘ yoki qabilaga mansubligi kabi bilimlar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi.

Insoniyat paydo bo‘libdiki, o‘zi yashab turgan yoki atrofini qurshagan shaharlar, qishloqlar, ovullar, maydonlar, bog‘lar, qal’alar, qo‘rg‘onlar, karvonsaroy, rabotlar, masjid va madrasalar, ko‘chalar, mahalla-

lar, chorrahalar, tog‘lar, qirlar, dovonlar, tepalar, qoyalar, cho‘qqilar, dalalar, vodiylar, yaylovlar, changalzorlar, o‘rmonlar, sahrolar, cho‘llar, dashtlar, qumliklar, jarliklar, g‘orlar, o‘zanlar, daryolar, soylar, ko‘llar, quduqlar, kanallar, ariqlar, buloqlar, sharsharalarni alohida-alohida ataydi va shu orqali ularni bir-biridan farqlaydi. Hatto bu nomlar “o‘lkaning tabiiy-geografik, biologik, botanik xususiyatlaridan tortib, yerosti zaxiralaridan darak beruvchi betakror lisoniy boyliklardir” [1;10-b.]. Darhaqiqat, jonkuyar toponimist olim to‘g‘ri ta’kidlaganidek, ajdodlarimiz biror joyga nomni tasodifan emas, balki aniq motivatsion belgilar asosida tanlashgan. Bu belgilar odatda hududning tabiiy, ijtimoiy va tarixiy xususiyatlarini aks ettirganligi bilan ahamiyatli. Masalan, Moybuloq (qishloq), Oltinsoy (qishloq), Gazli (shaharcha), Zarafshon (daryo) kabi.

Vatanimizda so‘nggi yillarda tilshunoslik ilmining qator yo‘nalishlari bilan teng-teng toponimik birliklarning barcha tiplari yaxlit bir tizim sifatida tarixiy-etimologik, leksik-semantik, struktur-tipologik, nominatsion-motivatsion, sotsiolingvistik, antroposentrik jihatdan chuqur, batafsil o‘rganilmoqda. Ayniqsa, “Toponimlarni grammatik jihatdan tekshirish juda ko‘p lingvistik masalalarni yoritishga imkoniyat beradi” [2;104-b.]. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston toponimikasining ajralmas qismi bo‘lgan Quyi Zarafshon toponimlarining bir parchasi hisoblangan Karmana tumani oykonimlarining grammatik-struktur xususiyatlarini tadqiq qilish muhim vazifalardan biridir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Toponimlarni leksik-semantik, struktur-grammatik jihatdan tadqiq qilish til lug‘at tizimidagi doimiy iste’molda bo‘lgan leksemalarga qaraganda nisbatan qiyinchiliklar bilan amalga oshiriladi, chunki joy nomlarining katta qismi til iste’molchilari uchun hududiy chegaralanganligi, doimiy muloqotda faol bo‘lmaganligi va tarixiy leksikasiga xosligi uchun hozirgi til nuqtayi nazaridan tushunarli bo‘lavermaydi. O‘z o‘rnida aytish kerakki, toponimlarni grammatik strukturalarga bo‘lib tahlil qilish ularning etimologiyasining kelib chiqishiga xizmat qiladi.

Toponimlarning grammatik xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi va derivatsion o‘ziga xosliklari borasida T.Nafasov, Z.Do‘simov, L.Karimova, N.Begaliyev, N.Oxunov, N.Uluqov, O‘.Oripov, S.Bo‘riyev, A. Aslanov, X.Xolmo‘minov, Sh.Temirov, O.Begimov, U.Turdimovlarning tadqiqotlarida ma’lumot uchraydi. Jumladan, T.Nafasovning Qashqadaryo toponimlarini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik dissertatsiyasining “Qashqadaryo toponimlarining grammatik xususiyatlari” deb nomlangan qismida hudud toponimlarining tarkibiy tuzilishi va yasalish xususiyatlari tadqiq qilingan. Unda olim o‘rganilayotgan hudud toponimlarini tuzilishiga ko‘ra, sodda va qo‘shma toponimlarga ajratgan. Toponimlarning yasalishida leksik-semantik usul bilan yasalgan toponimlar salmoqli ekanligi, yasama toponim uchun yasalishning morfologik usuli xarakterli ekanligi aytilgan. Shuningdek, Qashqadaryo toponimlari orasida qo‘shma toponimlar katta o‘rin egallashi hamda ularning tuzilish modellarini ot+ot, ot+sifat, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, fe’l+ot, numerativ+ot shaklida ekanligi ta’kidlangan [3;24-b.].

Xorazm viloyati toponimlarining grammatik xususiyatlarini o‘rgangan Z.Do‘simov “Xorazm toponimlari” (1985) nomli monografiyasining “Toponimlarning struktural-lingvistik tavsifi” nomli bobida hudud toponimlarini morfologik strukturasiga ko‘ra, uch guruhga: apellyativ nomlar, formantli nomlar, indikatorli nomlarga bo‘lib tahlil qiladi va Xorazm toponimlarining yasalish modellarini ikki guruhga: sodda toponimlar va qo‘shma toponimlarga ajratib tahlilga tortadi [2;104-b.].

Urgut tumani mikrotoponimlarining grammatik-struktur tabiati xususida izlanish olib borgan S. Bo‘riyevning fikriga ko‘ra, hudud mikrotoponimlarining lingvistik modeli – o‘zak, o‘zak+affiks, o‘zak+o‘zak, o‘zak+o‘zak+o‘zak, o‘zak+o‘zak+affiks shaklidan iborat. Shuningdek, qo‘shma toponimlarning tarkibi ot+ot, sifat+ot, sifat+sifat, son+ot, numerativ+ot, ot+fe’l shaklida ekanligi ta’kidlangan. Bundan tashqari, hudud toponimlari tarkibida *-zor, -lik, -li, -lar, -iston, -cha* qo‘shimchalari uchrashi haqida fikr yuritilgan [4;14-b.].

U.Turdimorodovning Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyasining ikkinchi bobida hudud toponimiyasining leksik-grammatik xususiyatlari yoritilgan va tadqiqotchi hudud toponimlarini tuzilish jihatdan affikssiz toponimlar yoki tub toponimlar, affiksli toponimlar yoki sodda yasama toponimlar, qo‘shma toponimlar, toponimik aniqlagichli (indikatorli) toponimlar va murakkab tarkibli toponimlarga ajratadi [5;66-b.].

Tahlil va natijalar. Olib borilgan izlanishlar natijasiga ko‘ra, toponimlarning tarkibiy tuzilishi jihatdan sodda, qo‘shma va murakkab shakllari hisobga olinishi, ularning qaysi nominativ birlikka mansubligi, struktur-tipologik jihatdan toponegiz, toposhakl, toponimik aniqlagichlar ham mavjudligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozimligi anglashiladi. Yuqoridagi xulosalarga tayangan holda, Karmana tumani oykonimlarini tuzilish jihatdan quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1. Tub oykonimlar. 2. Sodda yasama oykonimlar. 3. Qo‘shma oykonimlar. 4. Murakkab tarkibli oykonimlar.

Affikssiz toponimlar yoki tub toponimlar. Tub oykonimlar, odatda, o‘zak va affiksal morfemalarga ajralmaydigan, bir asosdan tashkil topgan joy nomlaridir. Bu tipdagi toponim va oykonimlarni Z.Do‘simov apellyativ nomlar deb atab, ularni, aslida, sinxron planda tub nomlar deydi va hech qanday morfemik bo‘-lakka bo‘linmaydigan toponimlar ekanligini, ularning ko‘pchiligi qadimgi leksik qatlamga mansubligini, etimologiyasini hamda tuzilishiga ko‘ra, boshqa nomlar bilan taqqoslash ancha qiyin ekanligini ta’kidlaydi [2;46-b.]. Bunday oykonimlarga hududdagi *Azamat, Bashir, Bahrin, Burqut, Varq, Hazora, Do‘rman, Jaloyir, Olchin, Arg‘un, Talqoq, Kalavot, Tama, Siyroq, Mang‘it, Nayman, Qahramon,* kabi oykonimlarni kiritamiz.

Sodda yasama oykonimlar. Sodda yasama oykonimlar tarkibida derivatsion affikslar yoki toponimik formantlar mavjud bo‘ladi. Masalan, *Tok+chi, Ayron+chi Bichon+chi, Qur+uvchi, Anor+zor, Uzum+zor, O‘rik+zor, Lola+zor, Pilla+kor, Madad+kor, Bunyod+kor, Ziyo+li, Qarshi+lik, Gul+iston, Kulol+lar, Bir+lik, Do‘st+lik* kabi.

Bunday tipdagi toponimlarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

– toponimning nomiga aylangunga qadar yasama so‘z bo‘lgan toponimlar: *Madad+kor, Bunyod +kor, Ziyo+li, Qarshi+lik, Bir+lik, Do‘st+lik;*

– qo‘shimcha qo‘shilgandan so‘ng joy nomiga aylangan toponimlar: *Ayron+chi, Anor+zor, Bichon+ chi, Tok+chi, Uzum+zor, O‘rik+zor, Gul+iston.*

Qo‘shma toponimlar. Morfologik tarkibi ikki va uch, hatto undan ortiq asosdan tashkil topgan oykonimlar qo‘shma oykonimlardir. Bunday joy nomlari semantik jihatdan ko‘p qatlamli va motivatsiyalangan bo‘lishidir. Nomlangan hududning geografik xususiyati, tarixi yoki tabiati haqida sodda tarkibli oykonimlarga nisbatan ko‘proq signal beradi. O‘zbek toponimlari orasida qo‘shma toponimlar son jihatidan salmoqli o‘rinni egallaydi. Shuningdek, Karmana tumani oykonimlari orasida ham qo‘shma turlari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hududda qo‘shma toponimlarning morfologik asosi va strukturasiga ko‘ra, quyidagi turlari uchraydi:

– ot+ot strukturali oykonimlar: *Bozor+joyi, Xon+chorbog‘, Tosh+rabot, Malik+rabot, Hovuz+ariq, Tepa+ariq, Yavon+machit, Tog‘+guzar, Zar+tepa, Kumush+kon, Gul+bog‘, Bobo+dehqon , Qo‘rg‘on+ tepa;*

– sifat+ot strukturali oykonimlar: *Yangi+ariq, Yangi+Urganji, Yangi+turmush, Yangi+niyat, Yangi +yo‘l, Yangi+avlod, Katta+machit, Yuqori+Bug‘, Quyi+Bug‘, Yuqori+Qoraqosh, Past +Qoraqosh, Chala+qo‘rg‘on, O‘rta+qo‘rg‘on, Ko‘hna+Qo‘rg‘on, Katta+machit, Qizil+tom, Ko‘hna+qo‘rg‘on, Katta +qo‘rg‘on, Yosh+avlod, Oq+oltin, Chala+qo‘rg‘on, O‘rta+qo‘rg‘on, Nurli+hayot;*

–ot+sifat strukturali oykonimlar: *Guzar+obod, Gul+obod, Paxta+obod, Qilich+obod, Islom+obod, Fayz+obod;*

– son+ot strukturali toponimlar: *Besh+tut, Besh+kent, Chor+rabot.*

Murakkab tarkibli oykonimlar. Bunday toponimlar Karmana tumani oykonimlari tarkibida son jihatdan juda kamchilikni tashkil etib, birikma shaklidagi murakkab tarkibli toponimlarga: *Sharq+yog‘dusi, Sog‘lom avlod, Xalqlar do‘stligi, Farhod qo‘rg‘oni, Uzumzor qo‘rg‘oni, Sog‘lom turmush, Usta Olim, Kamolot yo‘li, Ipak yo‘li, Usta Shirin* kabi nomlarni keltirishimiz mumkin. Misollardan ko‘rinadiki, murakkab tarkibli tuman oykonimlarining lisoniy qolipi, asosan, ot+ot tipidagi birikmalardan iborat. Shuningdek, tojikcha izofali *Bog‘i+eram, Bog‘i+murod* tarzidagi strukturaga ega bo‘lgan oykonimlar ham, *Xo‘jahayron* ko‘rinshli gap shaklidagi murakkab tarkibli topooykonimlar mavjud.

Xulosa va takliflar. Xullas, hududdagi oykonimlar grammatik-struktur xususiyatiga ko‘ra affikssiz (tub), affiksli (sodda yasama), qo‘shma hamda murakkab tarkibli oykonimlardan tashkil topgan. Struktur jihatdan qo‘shma so‘z shaklidagi oykonimlar tarkibi ot+ot, sifat+ot, sifat+ot, son+ot shaklidagi tuzilishga egadir. Hududda murakkab tarkibli oykonimlar nisbatan kam.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Э.Бегматов. Мустақиллик ва топонимия. “Ўзбек тили ва адабиёти” журнали, Тошкент, 2009, 5-сон, 10-бет.

(2). Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент, “Фан”, 1985, 104-бет.

(3). Нафасов Т. Топонимы Кашкадарьинской области. Автореф. дисс. … канд. филол. наук, Ташкент, 1968, 24 с.

(4). Бўриев С. Ургут тумани микротопонимларининг лексик-семантик таҳлили, Филол. фан. номз. ... дисс. автореф., Тошкент, 2010, 13–14-бетлар.

(5). U.Turdimorodov. Xatirchi tumani toponimlarining leksik-grammatik va etimologik tadqiqi. Filol.fan.b. fals. dok. …diss., Samarqand, 2023, 65-bet.